

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

XALQ KITOBLARI VA HAZRATI ALI HAQIDAGI XALQ QISSALARI

Bafoyev Farruh Sadreddinovich,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), doktorant,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Annotatsiya. Maqsad: Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodida vujudga kelgan xalq kitoblari, ularning o'ziga xos jihatlari, xalq nasridagi boshqa janrlardan farqli jihatlari tahlil etilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirishda shu paytga qadar olib borilgan tadqiqotlarga suyanilgan. Xalq kitoblari to'g'risidagi nazariy fikrlar hazrati Ali haqidagi qissalar misolida ochib berilgan. Mazkur xalq kitoblarining boshqa qardosh xalqlar ijodida ham mavjud ekanligiga e'tibor qaratilib, o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan.

Metodlar: Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik metodlardan, shuningdek, tavsiflash, etnofolkloristik tahlil usullaridan unumli foydalanilgan.

Natijalar: Xalq kitoblaridan sanalgan hazrati Ali va u zotning avlodlari haqidagi qissalar misolida mazkur janrning o'ziga xos jihatlari, janriyxususiyatlari aniqlangan, ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar tahlil etilib, xulosa qilingan. Hazrati Ali, uning o'g'llari, kelini va boshqa shaxslar haqidagi dostonlar birlashib, yaxlit turkumni hosil qilgani va bu folklorshunoslikdagi turkumlilik hodisasiga misol bo'lishi haqida mulohazalar bildirilgan.

Bundan tashqari hazrati Ali haqidagi xalq kitoblarining yurtimizdagi qadimiy manbalar saqlanadigan kutubxona va fondlardagi qo'lyozma va toshbosma nuxsalari, ularning saqlanish holati, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi asosli ma'lumotlar ham berilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan qo'lyozma va toshbosma nuxsalarni keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkinligi hisobga olinib, inventar raqamlari, manbalar saqlanayotgan fondlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim qilingan.

Xulosa: Xalq kitoblarining xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot oraliq 'idagi janr ekanligi aniqlangan. Ularning aksariyati, islom dinining yoyilishida xizmat qilgan shaxslar faoliyati bilan bog'liq ekanligi, syujetida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'zaro sintezlashgan holda oraliq hodisani yuzaga keltirgani to'g'risida xulosaga keltingan.

Kalit so'zlar: xalq kitoblari, kitobiy dostonlar, hazrati Ali, qissalar, jangnoma, turkumlilik, qo'lyozma, toshbosma, fondlar.

НАРОДНЫЕ КНИГИ И НАРОДНЫЕ ИСТОРИИ О ХАЗРАТЕ АЛИ

Бафоев Фаррух Садриддинович,

доктор философии (PhD) филологических наук, докторант, Академия наук Республики Узбекистан, Институт узбекского языка, литературы и фольклора

Аннотация. Цель: В данной статье анализируются народные книги, созданные в народном устном творчестве, их уникальные стороны и отличия от других жанров народной прозы. В реализации этой цели она опирается на исследования, проведенные до сих пор. Теоретические представления о народных книгах раскрываются на примере рассказов о Хазрате Али. Было обращено внимание на то, что эти народные книги существуют в произведениях других братских народов, обсуждались сходства и различия.

Методы: В исследовании использовались сравнительно-исторический, сравнительно-типологический методы, а также методы описательного и этнофольклористического анализа.

Результаты: На примере рассказов о Хазрате Али и его потомках из народных

книг выявлены специфические аспекты и жанровые особенности этого жанра, проанализированы факторы, вызвавшие их возникновение, и сделаны выводы. Говорят, что эпосы о Хазрате Али, его сыновьях, невестке и других людях объединились и образовали целый ряд, и это пример феномена ряда в фольклористике.

Кроме того, приведены рукописи и литографические копии народных книг о Хазрате Али в библиотеках и фондах, где хранятся древние источники в нашей стране, условия их сохранности и их специфические характеристики. Учитывая, что обнаруженные в ходе исследования рукописи и петроглифы могут послужить основой для дальнейших исследований, приводятся дополнительные сведения об инвентарных номерах и фондах, в которых хранятся ресурсы.

Выводы: Определено, что народные книги представляют собой жанр между народным устным творчеством и письменной литературой. Сделан вывод, что большинство из них связано с деятельностью людей, служивших распространению ислама, а историческая правда и художественная ткань синтезировались в их сюжете и создавали промежуточное событие.

Ключевые слова: народные книги, книжные эпосы, Хазрат Али, рассказы, хроники, серии, рукописи, литографии, фонды.

FOLK BOOKS AND FOLK STORIES ABOUT HAZRAT ALI

Bafoyev Farruh Sadreddinovich,

doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, doctoral student, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Uzbek language, literature and folklore

Abstract. Objective: In this article, the folk books created in folk oral creativity, their unique aspects, and their differences from other genres of folk prose are analyzed. In the implementation of this goal, it is based on the researches that have been carried out until now. Theoretical ideas about folk books are revealed on the example of stories about Hazrat Ali. Attention was drawn to the fact that these folk books exist in the works of other brotherly nations, and the similarities and differences were discussed.

Methods: Comparative-historical, comparative-typological methods, as well as descriptive and ethno-folkloristic analysis methods were used in the research.

Findings: On the example of stories about Hazrat Ali and his descendants from folk books, the specific aspects and genre features of this genre were identified, the factors that caused their emergence were analyzed and concluded. It is said that the epics about Hazrat Ali, his sons, his daughter-in-law, and other people were united and formed a whole series, and this is an example of the phenomenon of series in folklore studies.

In addition, the manuscripts and lithographic copies of folk books about Hazrat Ali in the libraries and foundations where ancient sources are stored in our country, their preservation conditions, and their specific characteristics are also given. Taking into account that the manuscripts and petroglyphs discovered during the research can serve as a basis for further research, additional information about the inventory numbers and funds where the resources are kept is provided.

Conclusion: It has been determined that folk books are a genre between folk oral creativity and written literature. It was concluded that most of them are related to the activities of people who served in the spread of Islam, and that historical truth and artistic fabric were synthesized in their plot and created an intermediate event.

Keywords: folk books, book epics, Hazrat Ali, short stories, chronicles, series, manuscripts, lithographs, funds.

Xalq og‘zaki ijodida vujudga kelgan, muayyan tarixiy shaxslarning faoliyati, qilgan

qahramonliklari haqida so‘z yurituvchi hayot haqiqati va badiiy to‘qima o‘zaro uyg‘unlashgan holda keladigan epik asarlar sanalgan xalq qissalari o‘zining shakliy tuzilishi, syujet va kompozitsiyasi, badiiy va g‘oyaviy xususiyatlari bilan xalq nasrining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Ular vujudga kelganidan buyon bir necha asrlar davomida kechalari qissaxonlar tomonidan kuyylanib, kishilarga estetik zavq beribgina qolmay, xalqning o‘z tarixidan xabardor bo‘lishiga, qissalarda vasf etilgan tarixiy shaxslar hayoti, qilgan qahramonliklaridan ibrat olishga ham bir vosita bo‘lgan. Chunki ularda asosan xalq ozodligi, yurt farovonligi, din va e’tiqod dahlsizligi yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan millat qahramonlarining hayoti, faoliyati qalamga olingan, vasf etilgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida xalq qissalarining paydo bo‘lishi, tarqalishi, asosan, islom dinining kirib kelishi bilan bog‘lanadi. Boisi ularning asosiy qismi islomning yoyilishiga xizmat qilgan sarkardalar, tarixiy shaxslar haqidadir. Ular folklorshunoslikda “xalq kitoblari”, “xalq qissalari”, “jangnomalar” nomlari bilan ham yuritiladi. Ammo ba’zi tadqiqotlarda mazkur atamalar sinonimiyani hosil qilmasligi ta’kidlanadi. Xususan, tadqiqotchi L.Asimova aynan XVII-XIX asrlarda yaratilgan ana shu tarixiy-jangnoma xarakteridagi asarlar “xalq kitoblari” atamasining tarkibiy qismi hisoblangan “qissa” janrida yozilgan bo‘lib, tadqiqotchilar ham shu terminni qo‘llaganliklarini ta’kidlaydi [1;149]. ularning tarqalish davrini esa asosan, XVII asrga to‘g‘ri kelishini tahmin qilishadi. Bunga aynan shu davrda fors-tojik tilidagi manbalarning turkiy tilga tarjima qilinishi, saroy atrofida yuzaga kelgan adabiy muhitning shakllanganini asos qilib keltirishadi.

Xalq ijodi namunalarini qaysi janrga kiritish, agar ularni doston sifatida e’tirof etadigan bo‘lsak, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, dostonning qaysi turiga kiritish masalasiga oid turli fikrlar ilgari surilgan. Xalq dostonlarini tasniflash masalasida V.M.Jirmunskiy, H.Zarifov, T. Mirzayev, M. Saidov kabi folklorshunoslari o‘z qarashlarini keltirib o‘tganlar. Masalan, o‘zbek folklorshunosligidagi ilk yirik tadqiqotlardan sanalgan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov hamkorligida yozilgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobida xalq dostonlari qahramonlik, jangnoma, tarixiy, kitobiy, adabiy manbaga ega bo‘lgan dostonlar va yangi dostonlar kabi tiplarga ajratiladi. Aytish kerakki, ushbu tasnif o‘zbek folklorshunosligida xalq dostonlarining ilk tasniflaridan edi. Olim Muhammadnodir Saidov esa dostonlarni qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romantik, jangnoma va tarixiy dostonlarga bo‘ladi. Ushbu tasnifning oldingi tasnifdan farqi olim adabiy manbaga ega bo‘lgan va yangi dostonlarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra boshqa turkumga kiritishida ko‘rinadi. Biz so‘z yuritayotgan hazrati Ali turkumidagi yoki boshqa sahobalar hayoti, jang-ujadallardagi jasorati haqida so‘z yurituvchi asarlarni yuqoridagi tasniflarda u yoki bu guruhga kiritilganligini kuzatish mumkin. Masalan, V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar uni “xalq roman”, T.Mirzayev va B.Sarimsoqovlar “qissa-doston”, “kitobiy doston”, Xolid Rasul “xalq kitoblari” deb atashni maql ko‘rishgan. R.Jumaniyozov, M.Boboyev kabi tadqiqotchilar esa bu toifaga kiruvchi asarlarni gohida “xalq kitoblari” deb nomlasalar-da, tahlil jarayonida ularni mumtoz adabiyot bilan xalq epik ijodiyotini bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tashini ta’kidlagan holda og‘zaki va yozma adabiyotning mahsuli, ya’ni “oraliq shakli” deb baholaydilar” [5;46]. “Zero, xalq kitoblari - xalqning qalb qo‘ri, badiiy tafakkuri, natijasida yaratilgan afsona, rivoyat, ertak, doston singari durdonalarning xattotlar tomonidan ko‘chirilib, kitobat qilingan namunalaridir”[4;102].

Ana shunday xalq qissalaridan bir turkumi Muhammad payg‘ambar(s.a.v.) ning amakivachchalari va kuyovlari, xalifai roshidinining to‘rtinchisi Ali ibn Abu Tolib va ularning avlodlari haqida vujudga kelgan asarlardir. Qissalar matnida hazrati Ali nomi bilan tilga olinadigan ushbu tarixiy shaxsning hayoti, ijodi, ko‘rgan-kechirganlari, islom dinining yoyilishi yo‘lidagi jasoratlari, yurish-turish va fe’l-atvorlari haqida juda ko‘plab ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar yaratilgan. Hazrati Alining islom olamida pahlavonligi, botirligi, mardligi va tadbirkorligi, jihodlarda va jang-ujadallarda qo‘lga kiritgan zafarlari alohida diqqatga molikdir [3;3]. Ana shu voqeliklar hazrati Ali haqidagi xalq qissalarining vujudga kelishiga

sabab bo'lgan.

Folklorshunoslikda "bir qahramon va uning sulolasi, epik faoliyatiga bag'ishlangan yoki muayyan epik joylar bilan aloqaga ega bo'lgan dostonlar yoki qo'shiqlar silsilasi" [5;41]ga turkum deb atalishini bilamiz. Folklorshunos Sh.Turdimov ushbu hodisani xalq dostonlari misolida izohlar ekan, "Ma'lum bir epik qahramon, uning avlodlari va safdoshlari hayotidan hikoya qiluvchi dostonlar silsilasi turkumni tashkil etish"ini ta'kidlaydi. Albatta, bir "turkumga kiruvchi dostonlar bir-birining izchil davomi bo'lmay, har biri alohida-alohida voqealar asosiga qurilishi ham mumkin" [6;185]. Biz so'z yuritayotgan hazrati Ali haqidagi asarlar ham o'ziga xos bir turkumni tashkil qiladi. Unda, asosan, hazrati Ali, o'g'illari imomi Hasan, imomi Husayn, imomi Muhammad Hanifa, kelini Zufunun kabi qahramonlar bilan bog'liq sarguzashtlar haqida hikoya qilinadi. Ammo ularning barchasida hazrati Ali obrazi yetakchilik qiladi. Masalan, 1992-yil "Xalq kitoblari" turkumida e'lon qilingan "Hazarati Ali haqida qissalar" kitobidan "Hazarati Ali haqidagi o'n to'rt qissa" ("Hazrat Ali tomonidan Ubudiyati Shomiyning o'ldirilishi", "Otashparast Zapirning Hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi, "Hazarati Alining imom Muhammad Hanifani xalos etishlari", "Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi", "Hazarati Alining Imloqni mahv etishlari" kabi turli nomlar bilan nomlangan), "Uhud jangi", "Haybar jangi", "Zarqum qissasi", "Molik ajdar qissasi" kabilar joy olgan. "Xalq kitoblari" seriyasida nashr etilgan "Bobo Ravshan", "Zufunun" qissalari ham bevosita hazrati Ali jasoratiga bag'ishlangan. Ko'rinish turganidek, qissalar turli nomlar bilan nomlangan, ammo ularda hazrati Alining islom dushmanlari bilan bo'lgan janglari tasvirlangan. Qissalarda turkumlilikka xos bo'lgan epik makon va zamon hamda epik qahramonlar umumiyligi mavjud. Qissalarda epik makon sifatida, asosan, islom dini nozil bo'lgan Madina va Makka shaharlari hamda islom dini nozil bo'lgan asr tilga olinsa, qahramonlar sifatida Muhammad alayhissalom, hazrati Ali, uning o'g'illari, bundan tashqari sahabalardan Sa'd Vaqqos, Bilol ibn Raboh, Solmon Forsiy, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob hamda boshqa to'qima obrazlar nomlari tilgan olinadi. Bosh qahramonga yondosh obrazlar sifatida uning oti Duldul, otboqari Bobo Qanbar hamda qilichi Zulfiqor nomi tez-tez tilga olinadiki, bu holat dostonlardagi alplik tizimini esga soladi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, mazkur tipdag'i asarlar nafaqat o'zbek xalq og'zaki ijodida, balki umuman turkiy xalqlar folklorida, bundan tashqari islom diniga e'tiqod qiladigan boshqa xalqlar ijodida ham mavjud ekan. Shu o'rinda o'rinchli bir savol tug'iladi. Xo'sh, nima sababdan sahabalardan, xalifai roshidinlardan aynan Ali ibn Abu Tolib haqida xalq qissalari juda ko'p ijod etilgan va keng yoyilgan? Buning sababini, bizningcha, quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, Hazrati Ali, ya'ni Ali ibn Abu Tolibning yosh va navqiron davri islom dinining yer yuziga tushishi, vahiy kelishi, boshqalarning dinka da'vat qilinishi davriga to'g'ri keldi va dinning bevosita yer yuziga yoyilishi uchun qilingan jang-u jadallarda ishtirok etdi. Bu holatlar islom tarixi bilan bog'liq manbalarda qayd etib o'tiladi. U 6 yoshidan Muhammad alayhissalom xonardonlarida yashadi, ularning ta'lif-tarbiyalarini oldi. Rivoyatlarda birinchi bo'lib erkaklardan Abu Bakr, ayollardan Xadicha, yosh bolalardan Ali ibn Abu Tolib va qullardan Zayd ibn Horisa islomga kirgan deb aytildi [7;42]. Shu sababli ham hazrati Ali qissalarida bosh qahramonning har qanday vaziyatda Payg'ambar alayhissalom yonlarida, hamdam-u hamfikr ekanligi tasvirlanadi.

Ikkinchidan, Ali ibn Abu Tolib Muhammad alayhissalomga har tomonlama yaqin inson: amakilarining o'g'li, kuyovlari, payg'ambar alayhissalom surriyodlarining davomchisi bo'lgan imom Hasan va imom Husaynlarning otasi. Umrining asosiy qismi Payg'ambar alayhissalomning yonlarida o'tgan. Hadisi shariflarda Payg'ambar alayhissalom ummatni ularni yaxshi ko'rishga da'vat etganlari ma'lum. Quyidagi hadisda bu haqida so'z boradi. Ummu Salama roziyallohu anho: "Alini munofiq yaxshi ko'rmaydi. Uni mo'min yomon ko'rmaydi", der edilar [8;182].

Uchinchidan, Ali ibn Abu Tolibning halifalik yillari murakkab davrga to‘g‘ri keldi. Muhammad alayhissalom vafotlaridan keyin islam dushmanlari tomonidan boshlangan fitnalar hazrati Alining xalifalik davrlarida yanada avj oldi, islam davlati ikki shaxs atrofida bo‘lindi. Biri Muoviyah ibn Abu Sufyon, ikkinchisi Ali ibn Abu Tolib. Bunday vaziyatda hazrati Ali tarafdarlari ularning xalifalikka eng haqdir inson ekanliklari, Muhammad payg‘ambarning oldilarida yurgan, jannat bashorati berilgan insonlardan biri ekanliklari, islam dinini yoyish uchun qilingan janglardagi jasorati haqida gapirib, insonlar orasida yoyishga harakat qilishdi. Bu keyinchalik tillarda doston bo‘lib, afsona va rivoyatlarga aylandi. Natijada, tabiiy ehtiyoj tufayli biz tadqiq etayotgan xalq qissalarini vujudga keldi.

Ma’lumki, asarlardagi boshlanma va tugallanma ham badiiy asarning mohiyatini ochib berishda, anglashda muhim ahamiyatga ega. Hazrati Ali haqidagi xalq qissalarida ham bu holatni ko‘rish mumkin. Ular an’anaviy boshlanma va tugallanmaga ega. Har bir qissa “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andog‘ rivoyat qiluvdurlarki” (xabar beruvchi va manbalardan naql qiluvchi roviylar shunday rivoyat qiladilarki) jumlesi bilan boshlanib, “Mo‘minlar shod bo‘lib, munofiqlar g‘amgin bo‘ldi” jumlesi bilan yakunlanadi. Boshlanmadan murod voqeanning tarixiyligiga (ya’ni syujetning to‘qima emas, balki ko‘rib yoki eshitilgan tarixiy voqelik ekanligiga) ishora bo‘lsa, tugallanmadan maqsad mo‘minlarning albatta g‘alabaga erishishlari, yakunda shod bo‘lishlari, bir burchakda zimdan voqeani “Qani nima bo‘larkan?” deb kuzatib turgan ikkiyuzlamachi dushmanlarning esa g‘alabadan g‘amda qolishlari ifoda etiladi. Mazkur an’anaviy boshlanmani hazrati Ali qissalarining turkcha versiyalarida ham kuzatish mumkin: “Râviyân-ı ahvâr ve nâkilân-ı âsâr söyle rivayet ederler” [2;5] Ammo an’anaviy tugallanma turkcha qissalarda uchramaydi. Ular, odatda, xulosaviy fikrlar, salovat va duolar bilan yakun topadi: “Ömür fâni, yazı bakidir” (“Umr o‘tkinchi, taqdir esa abadiy”) [2;234], “Ey dilekleri yerine getiren cümle dilekleri yerine getir! Âmin! Ya muin. Bi-hürmeti seyyidi'l-mürselin!” (Ey, duolarni ijobat qiluvchi, barcha orzularimizni ijobat qil. Omin.) [2;278].

Asardagi urushlarga garchand qandaydir voqealik turtki bo‘lgani haqida hikoya qilinsada, asosiy maqsad islam dushmanlarini mahv qilish, musulmon bo‘lmaganlarni musulmon qilishdir. Shu sababli ham aksariyat o‘rinlarda jangdagi dushman lashkarboshilari va ularning askarlarini oldida ikki yo‘l turadi: biri musulmonlikni qabul qilib, omon qolish va yoki Hazrati Ali va uning safdoshlari qo‘lida o‘lim topish. Birinchi holda islamni qabul qilganlarga omonlik beriladi, ziyon yetkazilmaydi. Bu holatni biz “Molik Ajdar qissasi”, “Hazrati Alining Imloqni mahv etishlari” kabi qissalarda kuzatishimiz mumkin. Masalan, “Molik Ajdar qissasi” yakuni dushman qahramoning mag‘lubiyati va islamni qabul qilishi bilan yakunlanadi. Boshqa qissalarda esa ana shu qahramon obraz - Molik Ajdar hazrati Alining xos kishisi sifatida turli janglarda uning yonida yuradi. Xususan, “Hazrati Alining Imloqni mahv etishlari” qissasida Arshun qal’asi fathida Molik Ajdar Hazrati Ali lashkarlari safida tasvirlanadi: “Molik Ajdar taloyador lashkar erdi, unga aydilar: “Ey Molik Ajdar, voqif bo‘lg‘ilki, man qal’ag‘a kirarman deb, surayi “Fotiha”ni o‘qub o‘zlarig‘a damida qildilar ravon bo‘ldilar” [3;33]. Bu tasvir orqali islamning haq din ekani, islamiy yurishlardan maqsad esa qaysidir yurtni bosib olish emas, balki aholini haq dingga da‘vat etish ekanligi, dinni qabul qilgan g‘animlar ham oqibatda do‘stlarga aytlanishi o‘ziga xos tarzda ochib berilgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Ali ibn Abu Tolib tug‘ilganida onasi Fotima binti Asad ibn Hoshim unga Asad deb otasining otini qo‘ymoqchi bo‘ladi. Abu Tolib uyga qaytib xotini qo‘yan ismni ma’qul ko‘rmay, o‘g‘lini Ali deb ataydi. Bunday tashqari uning “Haydar”, “Murtazo”, “Abu Turob”, “Abul Hasan”, “Abu Sibtayn” degan ulug‘ kunya va laqablari bo‘lgan [7;40]. Qissalarda esa Ali ibn Abu Tolib aksariyat o‘rinlarda hazrati Ali, bundan tashqari amir, Shohimardon, Asadulloh deya tilga olinadi. Xalq dostonlarida ham bu holat kuzatiladi. Masalan, o‘zbek xalq qahramonlik eposi hisoblangan “Alpomish” dostonida hazrati Ali “Shohimardon pir” nomi ila tilga olinadi. Asardagi voqealar rivojida uning o‘rni beqiyos. Asar boshlanmasidan tortib oxirigacha, bosh qahramonning tug‘ilishidan tortib qahramonliklarigacha yo‘ldosh, hamroh

obraz sifatida tilga olinadi.

Hazrati Ali haqidagi xalq dostonlari tilini kuzatar ekanmiz, qissa matni o‘zbek tilida bo‘lishiga qaramay, unda, asosan, forsiy izofa va so‘zlardan juda ko‘p bora foydalanilganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Alg‘araz, kofiri digarkim, ul Alini ko‘rub qochti. Amir orqasidan quvdilar. Kofir darvozadan chiqay deb erdi, oyog‘i etagiga chirmashib yiqildi. Boshi toshg‘a tegib, mag‘zi sari parishon bo‘ldi” [3;112]. Shu birgina parchada bir necha fors-tojik tilidagi so‘zlarda duch kelamiz: “digar”, “sar”, “parishon”. Bundan tashqari qissalarda “lashkari kuffor”, “lashkari islom”, “shamshiri zahar”, “xojai olam”, “obi dahon” kabi juda ko‘plab izofali birikmalar ham faol qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur qissalar asosan, tojikzabon aholi orasida keng tarqalgan va eshitilgan. Tadqiqotchi Rahim Jumaniyozov o‘zining xalq kitoblari tadqiqiga bag‘ishlangan risolasida xalq kitoblarini o‘lkamizning turli hududlarida tarqalganligini, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi, Xorazm, To‘rtko‘l, Toshhovuz viloyatlari hududida xalq kitoblarini ommaviy suratda o‘qish va tinglash kechalari tez-tez o‘tkazilib turilishini qayd etib o‘tadi[4;9]. Shu sababli bo‘lsa kerak, yurtimiz kutubxona va qo‘lyozma, toshbosma manbalar fondlarida hazrati Ali qissalarining juda ko‘plab nuxxalarini uchratish mumkin. Masalan, O‘zR FA Sharqshunoslik institutining bir necha fondlarida asarning bir yuz elliqtan ortiq manbalarini uchratdik. Masalan, institutdagi Hamid Sulaymon fondida quyidagi qo‘lyozma manbalar saqlanayotganini aniqladik:

Jangi hazrati Ali. Inv. № 305, hajmi 242 b. Bichimi: 14.5x25. Tili: tojikcha.

Jangnomai imomi Hanafiya (Zufunun). Inv. № 651, joylashish o‘rni 2-90-sahifalarda. Bichimi: 14.5x25. Tili: o‘zbekcha.

Jangnomai imomi Hanafiya (Zufunun). Inv. № 2067, hajmi 135 b. Bichimi: 14.5x26. Tili: o‘zbekcha. Ko‘chirilgan yili: hijriy 1308-y.

Jangnomai imomi Hanafiya (Zufunun). Inv. № 639/III, joylashgan sahifalari: 312-375 b. Bichimi: 14.5x25. Tili: o‘zbekcha. Kotib: Mullbek.

Jangnomai imomi Hanafiya (Zufunun). Inv. № 833/I, hajmi 122 b. Bichimi: 13x20.5. Tili: o‘zbekcha. Ko‘chirilgan yili: hijriy 1319-y.

Jangnomai imomi Hanafiya. Inv. № 1349/I, hajmi 73 varoq. Bichimi: 13.5x25. Tili: o‘zbekcha. Ko‘chirilgan yili: hijriy 1259-y.

Jangnomai imomi Hanafiya (Zufunun). Inv. № 100/ I, toshbosmadagi sahifalari: 1-93b. Bichimi: 14x25.5. Tili: o‘zbekcha.

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 5120/III, toshbosmadagi sahifalari: 148-222. Bichimi: 14x24. Tili: o‘zbekcha. Kotib: Sulaymon Hoji Eshon

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 4278, toshbosmadagi sahifalari: 148-222. Bichimi: 15x26. Tili: o‘zbekcha.

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 3859, hajmi: 279 varoq. Bichimi: 24x30. Tili: o‘zbekcha.

Hafdhah g‘azoti Hazrati Ali. Inv. № 4324, hajmi: 211 varoq. Bichimi: 14,5x25. Tili: forsch. Kotib: Mulla Niyoz Muhammad valadi Mulla Jomiy Ibrohim. Xati: nasta’liq. Kitobot yil: hijriy 1314-y.

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondida saqlanayotgan toshbosma manbalar esa quyidagilar:

Jangnomai Imom Muhammad Hanafiyha. Inv. № 1349, hajmi: 73 varoq. Bichimi: 13,5x25. Tili: o‘zbekcha. Xati: nasta’liq. Nashr yili: hijriy 1259-y.

Jangnomai Imom Hazrati Imom Husayn. Inv. № 2928, hajmi: 143 varoq. Bichimi: 11,5x21,5. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: hijriy 1325-y. Nashr joyi: Toshkent.

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 4502, hajmi: 5-208-sahifalar. Bichimi: 15,5x26,5. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: hijriy 1329-y.

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 1915, hajmi: 214 varoq. Bichimi: 16x26. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1900-yil. Nashr joyi: Toshkent.

Jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 3341, hajmi: 214 varoq. Bichimi: 18x28. Tili: o‘zbekcha.

Nashr yili: 1324-yil. Nashr joyi: Toshkent. Noshir: Abdurauf Hoji ibn Abdunnabiy. Jangnomai Zufunun. Inv. № 3958, hajmi: 214 varoq. Bichimi: 16,5x25. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1904-yil. Nashr joyi: Toshkent. Jangnomai Zufunun. Inv. № 4485, hajmi: 95 sahifa. Bichimi: 16,5x26,5. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1329-yil. Nashr joyi: Buxoro. Jangnomai Zufunun. Inv. № 1221, hajmi: 48 sahifa. Bichimi: 17x27. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1904-yil. Nashr joyi: Toshkent. Xat turi: nasta’liq. Jangnomai Zufunun. Inv. № 3280, hajmi: 196 sahifa. Bichimi: 17x30. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1325-yil. Nashr joyi: Toshkent. Noshir: Mulla Yusufjon ibn Mullo Zokirjon. Jangnomai Zufunun. Inv. № 3237, hajmi: 126 sahifa. Bichimi: 16,5x26. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1904-yil. Nashr joyi: Toshkent. Jangnomai Zufunun. Inv. № 3062/I, hajmi: 126 sahifa. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1904-yil. Nashr joyi: Toshkent. Noshir: Mulla Mirzo Ahmad Mirzo Karim o‘g‘li. Jangnomai Zufunun. Inv. № 2946 hajmi: 80 sahifa. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1329-yil. Bichimi: 16,5x25. Jangnomai Zufunun. Inv. № 2909, hajmi: 80 sahifa. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1321-yil. Bichimi: 15x20. Jangnomai Zufunun. Inv. № 6104, hajmi: 91 sahifa. Bichimi: 16x27. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1321-yil. Nashr joyi: Toshkent. Noshir: Mulla Sayyid Xoja Eshon. Jangnomai Haft g‘azot Hazrati Ali. Inv. № 2945, hajmi: 91 sahifa. Bichimi: 15,5x24. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1321-yil. Matbai G‘ulomiya. Jangnomai Haft g‘azot. Inv. № 1312, hajmi: 112 sahifa. Bichimi: 16x25. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1326-yil. Nashr joyi: Buxoro. Haft g‘azot va jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 4419, hajmi: 175 sahifa. Bichimi: 16,5x26. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1326-yil. Nashr joyi: Toshkent. Haft g‘azoti jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 274, hajmi: 104 sahifa. Bichimi: 16x17. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1326-yil. Nashr joyi: Toshkent. Haft g‘azoti jangnomai Hazrati Ali. Inv. № 6194, hajmi: 175 sahifa. Tili o‘zbekcha. Nashr joyi Toshkent. Bichimi: 17,5x27. Noshir: Hoji Abdurrauf ibn Abdunnabiy. Haft g‘azot (jangnoma). Inv. № 205, hajmi: 175 sahifa. Bichimi: 16x26. Tili: o‘zbekcha. Nashr joyi: Toshkent. Hafdhah g‘azot. Inv. № 4654, hajmi: 224 sahifa. Bichimi: 16x17. Tili: o‘zbekcha. Nashr yili: 1324-yil. Nashr joyi: Kogon. Mazkur institutning Asosiy fondidagi hazrati Ali haqidagi xalq qissalari quyidagilar: Hazrati Ali va Zarqum qissasi. Inv. № P 11525 - VI, bichimi: 14x25,5. 13 qator, xati: nasta’liq, 19 varoq. Mazkur manbaning 172-153 betlarida. o‘zbek tilida. Haftdah g‘azot. Inv. № P 9963 - I, varoq kattaligi: 15x26, 15 qatorlik jami 113 bet. 1-113-betlar, nasta’liq xatida, qo‘lyozma yaxshi saqlanmagan, boshi va oxirida varoqlari tushgan. Haftdah g‘azot. Inv. № 11890, nasta’liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo‘lgan, 251 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 25,5x14. Tili o‘zbek. Oxiri tushib qolgan. Haftdah g‘azot. Inv. № P 12781, nasta’liq xatida, har biri 15 qatordan iborat bo‘lgan, 159 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 15x26. Tili o‘zbek. Ko‘chirilgan yili hijriy 1297-yil. Haftdah g‘azot. Inv. № P 1733-I, nasta’liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo‘lgan, 166 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 15x26. Tili forsiy. Haftdah g‘azot. Inv. № P 9281, nasta’liq xatida, har biri 15 qatordan iborat bo‘lgan, 168 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 14x25. Tili tojikcha. Jangnomai imom Husayn. Inv. № P 379-II, nasta’liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo‘lgan, 34 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 13x21,5. Tili forsiy.

Jangnomai imom Muhammad Hanafiyya bo Zufunun. Inv. № P 1683-I, nasta'liq xatida, har biri 11 qatordan iborat bo'lgan, 158 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 13x21. Tili turkiy. Ko'chirilgan yili hijriy 1300 yil.

Jangnomai hazrati Ali. Inv. № P 12056-IX, nasta'liq xatida, har biri 17 qatordan iborat bo'lgan, 47 varoqdan iborat. 229-276-betlardan o'rinni olgan. Varoq kattaligi: 22,5x13,5. Tili o'zbekcha. Ko'chirilgan yili hijriy 1300 yil. Oxiri to'liq emas.

Jangi Ali va Muhammad Hanafiyya bo Zufunun. Inv. № P 6540-I, nasta'liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo'lgan, 99 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 13x20,5. Tili forsiy. Ko'chirilgan yili hijriy 1264 yil.

Jangnomai hazrati Ali. Inv. № P 12415-I, nasta'liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo'lgan, 73 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 27x15. Tili o'zbekcha.

Jangnomai Shohimardon. Inv. № P 9279-I, nasta'liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo'lgan, 85 (1-85 b) varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 15x25. Tili o'zbekcha. Ushbu raqam ostida uch kitob bor.

Jangnomai Zufunun. Inv. № P 9279-II, nasta'liq xatida, har biri 13 qatordan iborat bo'lgan, 65 (86-150 b) varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 15x25. Tili o'zbekcha. Manbaning boshi tushib qolgan.

Imom Muhammad Hanafiya qissasi. Inv. № P 7507-II, nasta'liq xatida, har biri 9 qatordan iborat bo'lgan, 84 varoqdan iborat. Varoq kattaligi: 15x26. Tili o'zbekcha.

Mazkur manbalarning aksariyatidan hazrati Alining jasoratiga bag'ishlangan o'n to'rt qissa hamda Uhud, Haybar janglari, Molika Ajdar va Zarqum qissalari o'rinni olgan. Toshbosma nusxalarning nashr etilishi, asosan, XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Hudud jihatida, asosan, Toshkent va Buxoro yetakchilik qiladi. Xat turi, asosan, natla'liq bo'lib, o'zbek tilida. Fors-tojik tilidagi nashrlari ham uchraydi.

Qo'lyozmalarda hikoya qilingan hazrati Ali haqidagi o'n to'rt qissaning birinchi Ubudiyati Shomiyning o'ldirilishi voqeasiga bag'ishlanadi. Unga ko'ra, Shom muzofotiga tujjorlik uchun ketgan shaxslar Chaksa qal'asidagi Umari Ubudiyati Shomiy tomonidan zulmga uchraydi: mollari olinib, qulog'-u burunlari kesiladi va shahardan haydab yuboriladi. Jabr ko'rgan tujjor Muhammad alayhissalomdan yordam so'rab, zulmkorni jazolanishida ko'mak berishlarini so'rab keladi. Va vazifani payg'ambarimiz hazrati Aliga topshiradilar. O'zining jasorati bilan tillarda doston bo'lgan Ali roziyallohu anhu tuijorning qastini olib, kofirlarni jazolaydi. Keyingi qissalarda ham xuddi shu voqeaga o'xshash holatlar yuz beradi va hazrati Ali mazlumlar himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ikkinchi qissa qissada Otashparast Zapirning hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi, uchinchi qissa hazrati Alining imom Muhammad Hanifaning zolimlar qo'lidan xalos etishlari, to'rtinchchi qissa hazrati Alining Imloqni mahv etishlari, beshinchchi qissa Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi, oltinchchi qissada Maqsuraning hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi, yettinchi qissa Hazrati Ali tomonidan Tulu'ush-Shajarning qatl etilishi, sakkizinchchi qissa G'ushom ibn Xushomning Hazrati Ali tomonidan halok etilishi haqida hikoya qilinadi. Xuddi shuningdek, to'qqizinchchi qissa Toli Mag'ribiyning hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi, o'ninchchi qissa Hazrati Ali tomonidan Marra bin Qaysning va o'n birinchi qissada Qattolning, o'n ikkinchi qissada Hazrati Ali tomonidan Anqoning o'ldirilishi haqida hikoya qilinadi. Boshqa qissalardan farqli o'laroq o'n uchinchi qissa "Jihodi islom va Sayyidi olam sallallohu taolo alayhi vasallamning mo'jizalari" deb nomlansa, va nihoyat o'n to'rtinchchi qissa hazrati Ali tomonidan Qahqahaning o'ldirilishi tasviriga bag'ishlangan.

Qissalar hajman juda kichik. Masalan, 1992-yil "Xalq kitoblari" turkumida chiqqan nashrda qissalar hajmi quyidagicha: birinchi qissa 6 sahifa, ikkinchi qissa 6 sahifa, uchinchisi 5,5 sahifa, to'rtinchisi 10 sahifa, beshinchisi 7,5 sahifa, oltinchchi qissa 5 sahifa, yettinchi qissa 7 sahifa, sakkizinchchi qissa 6 sahifa, to'qqizinchchi qissa 5 sahifa, o'ninchchi qissa 5 sahifa, o'n birinchi qissa 3,5 sahifa, o'n ikkinchi qissa 4 sahifa, o'n uchinchi qissa 3 sahifa va nihoyat o'n to'rtinchchi qissa 7,5 sahifani tashkil qiladi. Ko'rinish turganidek, qissalar hajman kichik va

ularda bayonchilik yetakchilik qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hazrati Ali haqidagi qissalar nafaqat turkiy xalqlar, balki islomni qabul qilgan dunyo xalqlarining og‘zaki ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan xalq nasrining bebaho namunalaridan sanaladi. Ular o‘zbek folklorshunosligida turli janrlar sifatida nomlangan bo‘lsa-da, ularni muayyan shaxsnинг jasoratiga bag‘ishlangan xalq qissalari sifatida qabul qilish va nomlash to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki ular doston sifatida xalq og‘zaki ijodida xalq dostonlariga qo‘yiladigan barcha talablarga ham javob bera olmaydi. Maxsus boshlanma va tugallanma, o‘ziga xos turkumni tashkil etishi, tarixiy va badiiy to‘qimaning uyg‘un kelishi kabi jihatlar ularni maxsus janr sifatida e’tirof etishga asos bo‘la oladi. Mazkur asarlarni yurtimiz qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nuxsalarini qiyosiy o‘rganish, matniy tadqiq etish, zamonaviy nashrlarini tayyorlash va nashr etish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri sanalishini ham alohida qayd etib o‘tish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Азимова Л. (2022). Ўзбек мумтоз адабиётида ислом тарихига оид воқеаларнинг бадиий ифодаси /(XVII-XIX асрлар). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. – Тошкент.

Hz. Ali cenkleri. (2017). Hazırlayan: N.Ahmet Özalp. -İstanbul.

Хазрати Али ҳақидаги қиссалар / Нашр. Тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: С.Рафиддинов. (1992). – Т.:Ёзувчи.

Жуманиёзов Р. (1993). Ҳалқ ижоди – ҳақ ижоди. – Тошкент: Ўзбекистон.

Рўзимбоев С. Рўзметов Ҳ. (2007).Фольклор атамалари қисқача луғати. –Урганч, –Б.41

Турдимов Ш. (2023). Ўзбек мифологияси ва фольклори. –Тошкент: ILM VA FAN.

Пайғамбар қизлари Фотима розияллоҳу анҳо. (2022) . –Тошкент: Мұхаррир.

Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. (2021). Ҳадис ва ҳаёт. 22-жуз. Усмон ва Али ибн Абу Толиб розияллоҳу анхумо. – Т.: “Hilol-Nashr”.